O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № BD 60230100 2024 yil "09" 28	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__"_____

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
AN1110 *AN1710*	*2024-2025* *2027-2028*	*1/7*	*6+4=10*

Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek	4/4

	Fan nomi Majburiy	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Adabiyotshunoslik nazariyasi	72/52	108/68	180/120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o'qitishdan maqsad** – y"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani ikki qismdan iborat bo'lib, 1-kursda "Adabiyotshunoslik nazariyasi", 4-kursda "Adabiyot nazariyasi" sifatida o'rganiladi. Badiiy asarni tahlil qilish uchun yollanma berish, badiiy matnni turli metodlar asosida har tomonlama ilmiy-estetik talilil qilish, adabiy jarayondagi poetik o'zgarishlarni, filologning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanining asosiy maqsadi sanaladi. Adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish, ijodkorning badiiy obraz yaratish, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini, ilik shakllanish jarayonlarini sinkritik tarzda rivojlanib kelish sabablari, badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; badiiy asarlami turli metodlar asosida tahlil qiiishni tushuntirish, bugungi jarayondagi badiiyat qonuniyatlarini tahlil etish kabi masalalarni o'rganishdan iborat. **Fanning vazifasi** – fan yuzasidan bakalavr talaba lirik, epik, dramatik janrlar, she'r tuzilishi, san'atning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarni, poetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma'naviy san'atlarni bilishi va ulardan foydalana olishi lozim. Badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Fanning mohiyati, metodlari, tushunchalari va termenlarini o'zlashtirish, fanning kotegorial muammolari haqida nazariy bilimlarni egallash, innovatsiyalarini ta'lim tizimiga keng jalb qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish shuningdek, fanning bugungi kundagi dolzarb muammolarini belgilashdagi vazifalarni ko'rsatishdan iborat.

Fan mazmuni
1-QISM
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Adabiyotshunoslik–badiiy adabiyot haqidagi fan.** "Adabiyotshunoslik nazariyasi" badiiy adabiyot haqidagi fan ekanligi. Fanning predmeti, maqsad vazifalari va uning shakllanish sharayonini bilish, olingan bilmlarning asosida badiiy adabiyotning poetik xususiyatlarini tahlil qilish haqidagi nazariy tushunchaga ega bo'lish. Ilk shakllangan adabiy qarashlar turli janrdagi asarlar tarkibida sinkiritik shaklda shakllanib kelganligini izohlash.
M2	**Dunyoqarash. Xalqchillik. Umuminsoniylik. Milliylik.** Badiiy adabiyotni yaratuvchi shaxs – ijodkor dunyoqarashi olamni anglash, tushunish, his etish tuyg'ulari bilan alohida ajralib turadi. Uning asarlarida xalqchillik, umuminsoniy g'oyalar, milliylik o'z ifodasini topishi, asosli tarzda talqin etilishi lozim. Badiiylikning bu qonuniyatlari insonni, olamni, o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan bir qatorda, obrazlar olamini anglashga imkon beradi. Har qanday ijodkorning dunyoqarashi olam va insonni anglash tamoyillari bilan ajralib turadi.
M3	**Talant. Ilhom. Mahorat.** Talant – ijodkorni umuminsoniy g'oyalarni talqin etishidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirar ekan, uning zamirida shxasning hayotni anglashdagi badiiy moharati etakchilik qiladi. Talant, ilhom, mahorat uzviy birlikda namoyon bo'lsa-da, uning ijodkorlik faoliyati, shxsning kamolotini, uning hayot veqiligidagi o'rnini badiiy in'ikos etishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, har uchlik – talant, ilhom, mahorat mavjud bo'lsagina ijodkorning yaratgan asarlari mukammalik darajasiga ko'tariladi.
M4	**Badiiy obraz. Obraz yaratish yo'llari.** Badiiy obraz, uning badiiy funksiyasi, xususiyatlari, obraz yaratish yo'llari, ijodkor mahorati kabi masalalarga nazariy jihatdan yondoshiladi. Tur va janrlar nuqtaiy nazardan obraz yaratish jarayonlari haqida tushunchaga ega bo'ladi. Badiiy obrazning turli xususiyatlari, qoniniyatlari ijodkor mahorati bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Har bir turning o'ziga xos obraz yaratish jarayoni mavjud bo'lib, uning o'zaro uyg'unligi, farqli jihatlari mavjudligi ham asoslanadi.
M5	**Badiiy xarakter va adabiy tip.** Badiiy asar xarakterlar yaratish san'atidir. Badiiy asardagi mukammal obraz – xarakter. Uning xususiyatlari, badiiylik funksiyasi. Adabiy tip, uning shakllanishi, tipiklashtirish qonuniyati va adabiy tip. Har qanday xarakterning shakllanish omillari, tipik va notipik holatlar. Badiiy xarakterlarning shakllnishida hayot voqeligi, uning ziddiyatlari sezilarli o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida jamiyatdagi ma'lum bir sinf yoki guruhlarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan obrazlar olami shakllanadiki, bu esa badiiy tiplar uchun asos bo'ladi.
M6	**Mazmun va shakl.** Shakl va mazmun haqida tushuncha. Shakl va mazmunning dialektik birligi, biri ikkinchisiga o'tib turishi, ularning badiiylik jihatdan uzviyligi. G'oya va mavzu rang-barangligi. Bosh g'oya va yordamchi g'olalarning badiiyatdagi mo'rni. Bosh mavzu va yordamchi mavzularning badiiyatdagi o'rni. Basardagi mazmunning badiiy in'ikosi, shakl uchun asos bo'ladi. Mazmunning mohiyati badiiy asarni anglash imkonini bersa-da, uning o'ziga xosliklarini shakllantiradi bu esa, badiiylik mezonlarining asosini tashkil etadi. Mazmun va shaklsiz badiiy asarni tasavvur etib bo'lmasligi, uning

	asosida ijodkorning badiiy mahorati mujassamlashganligi asoslanadi.
M7	**Mavzu va g'oya.** Badiiy asardan kelib chiqadigan qarashlar asar mavzusiga chambarchas bog'lanadi. Hayot voqeligini badiiy kashf etar ekan ijodkor, eng avvola voqelikni saralaydi, sintezlaydi uning eng xarakterli johatlarini badiiyatga olib kiradi.. Buning asosida ham hayot voqeligi mujassamlashgan bo'ladi. Ijodkorning mahorati tufayli asar mazmuni yuzaga chiqar ekan, unda esa badiiy g'oya shakllanadi. Bosh g'oyani asoslovchi yordamchi g'oyalarning mavjudligi, uning voqealar silsilasi bilan uzviy bir;ligi ham namoyon bo'lishi qayd etiladi.
M8	**Badiiy asarda sujeti.** Badiiy asar sujet, uning tarkiy qismlari, qo'shimcha elementlari, uning badiiyatdagi o'rni. Sujet yaratish yo'llari. Sujet ta'rifi, xususiyatlari. Sujet – qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqyealar tizimi. Sayyor (ko'chma) syujetlar. Fabula – asar uchun asos bo'lgan hayotiy voqyea-hodisalar. Sujetning tarkibiy qismlari. Ekspozisiya, voqyealar tuguni, voqyealar rivoji, voqyealarning avj nuqtasi, voqyealar yechimi. Sujetning mukammlik kasb etishi asardagi voqealar rivojini ta'minlashga va mantiqiy izchillikda shakllanishiga asos bo'ladi.
M9	**Badiiy asar kompositsiya.** Badiiy asar kompositsiyasi, uning poetika tarkibidagi o'rni, kompositsion vositalar. Asar sarlovhasi, epigraf, boblar va qismlarning yozuvchi ideyasiga muvofiq joylashtirilishi. Badiiy asar kompositsiyasi uning yaxlitligini, badiiy mukammalligini ta'minlovchi badiiy unsure ekanligi. Uning har bir xususiyati asarni yaxlitligini ta'minlashga asos bo'lishi bilan bir qatorda, kompozitsiyaning unsurlarini voqealar rivojiga hamohang tarzda ifodalash ijodkor badiiy mahoratini namoyon etishi bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi.
M10	**Badiiy asar tili.** Badiiy asar tili. Umumxalq tili, adabiy til, badiiy til. Badiiy nutuq tushunchasi va uning shakllantirish xususiyatlari. Badiiy, adabiy, umumxalq tili. Muallif, hikoyachi, personaj nutqi. Tavsiflash vositalari. Badiiy asarning birinchi elementi badiiy til. Bu orqali asarlarning mukammalligi, ijodkorning badiiy mahorati, hayot voqeligini so'z asosida talqin etishi bilan uzviyligi tahlilga tortiladi. Har bir qahramonning o'z dunyoqarashi asosida shakllangan xislatlari uning nutqida namoyon bo'ladi. Ana shu jihatlarda ijodkorning badiiy til asosida asar yaratish mahorati yuzaga chiqadi.
M11	**She'riy asarning o'ziga xosligi.** Maxsus leksik qatlamlar. She'riy asardagi poetik ko'chimlar, ularning badiiy funksiyasi. She'riy asarda ohang, ritm, bo'g'in, turoq, turkum haqidagi nqazariy qarashlar. To'liq, och, ichki qofiya, zulqofiyatayn. Rukn. Bahr. Band. Har bir asarning badiiy xususiyatlari, uning o'ziga xos tamoyillari asosida shakllanib boradi, bu esa, shakl va mazmun birligini, uning poetik ifoda shakllarini yuzaga chiqaradiki, uning asosida inson qismati, kechinmalari namoyon bo'ladi. Maxsus leksik qatlamlar asosida badiiy qahramon dunyosi, xarakter qirralari ochib berilishidagi ijodkor mahorati bilan uzviyligi tahlil qilinadi.
M12	**She'riy sistemalar.** Barmoq, aruz, erkin she'r tizimi. She'riy sistemalarning o'ziga xos tamoyillari. Barmoq she'riy sistemasida bo'g'inlar miqdorining tengligui. Aruzda hijolarning qisqa va cho'ziqligi. Aruzda ruknlar, bahrlar ularning ifodalanishi va turlari. Badiiylik va erkin she'r tizimi, sochma sh'erlar. Uzoq yillik tarixga ega bo'lgan she'riy sistemalar, asrlar osha yangilanishi, poetik ifoda shakllarida namoyon bo'lish sabablari haqida mulohaza yuritiladi.
M13	**Adabiy turlar epos, lirika, drama.** Badiiy adabiyotning turlarga bo'linishi.aristotil nazariyasi va adabiy turlar klassifikatsiyasi. Epik tur. Roman, qissa, hikoya janrlari. Tur va janrlarning farqli tomonlari, sabablari. Epik turning janriy

	ko'rinishlari. Epos va uning xususiyatlari. Adabiy turlarning uzoq yillik tarixi mavjudligi, uning shakllanishi insoniyatning olam va odamni anglashdagi fadiiy funksiyalari bilan uzviyligi ochib beriladi. Adabiy turlar nazariyasiga antik davrdayoq asos solinishi, uning taraqqiyoti, yangilanish sabablari qayd etiladi.
M14	**Epik tur janrlari.** Epik turning taraqqiyoti ijodkorning olamni anglashdagi badiiy mahorati bilan uzviylikda rivojlanib kelishi, sabablari tahlilga tortiladi. Epik tur janrlari roman, qissa, hikoya, esse, novella kabi nasriy asarlarning har bir janrini talqin ob'ekti mavjudligi, uning ifoda shakllaridagi badiiy qahramon yaratish an'anasin, ruhiy kechinmalarining in'ikosi sifatida maydonga chiqishlari tahliy misollar sosida ochib beriladi. Roman hayotni keng qamrovda talqin etishi bilan ajralib turish sabablari tahlil qilinadi.
M15	**Lirik tur janrlari.** Lirik tur janrlari, xususiyatlari. Lirik kechinma va lirik qahramon, uning poetik ifodasi. G'azal, ruboiy, tuyuq kabi she'riy janrlar. Bu janrlar o'rtasidagi farqli xususiyatlar. Mumtoz lirik janrlar va ularning badiiy ifodadagi o'rni. Keyingi yillardagi mlirik janrlar, badiiy ifodasi. Lirik turning janrlarida kechinmalarning badiiy ifodasi etakchilik qilish sabablari, uning badiiy sardan o'rin olish, shaklan bir xillik, mazmunan har xillik jihatlar tahlil qilanadi.
M16	**Lirikada qofiya va poetik ko'chimlar.** Lirik asarlarning asosida badiiy qofiya etakchilik qiladi. Uning "sochilib ketmasligini" ta'minlash funksiyasi qofiyada mavjudligi, ammo qofiyasiz she'rlarning ham o'ziga xos tamoyillari mavjudligi asoslanadi. Badiiylik mezonlari ijodkordan juda katta katta mahoratni talab etadiki, bu esa faqat qofiya asosida emas, uning shakl mazun jihatdan ham mukammaligini ta'minlashga asos bo'lishi kabi holatlar tahlillar misolida ochib beriladi. Lirik janrlarning mumtoz adabiyotdagi badiiy xususiyatlari bilan birgalikda, keyingi yillar she'riyati misolida uning tadrijiy taraqqiyoti tahlil qilinadi.
M17	**Dramatik tur janrlari.** Dramatik turning badiiy xususiyatlari va dramatik asar yaratish an'anasi. Tragediya, drama, komediya janrlari. Drama janrlari, uning ko'rinishlari, tahliliy yondoshuvlar. Daramatik xarakter yaratish an'anasi, janriy ifodadagi o'rni. Keyingi yillardagi dramatik asarlar, o'zgarishlar, tahliliy yondoshuvlar. Tragediyaning qadimiy ko'rinishlari, badiiy xususiyatlari. Drataik turning asosida hayotning eng murakkab, dramatic jihatlari asos qilib olinish sabablari yoritiladi.
M18	**Badiiy uslub va ijodiy metod. Adabiy oqimlar.** Badiiy uslub va badiiyatdagi o'rni. Asrlar davomida shakllanib kelgan uslub tushunchasi. Ijodiy metodlar. Realizm, romantizm. Realizmning hayotiy haqiqat bilan uzviyligi. Rozmantizimning tasvirdagi o'rni, ularning talqindagi o'ziga xosliklari. Metod – hayot hodisalarini tanlash, ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo'li. Ijodiy uslublar: romantizm, realizm. Klassisizm yo'nalishi. Sentimentalizm, naturalizm, syurrealizm, ekzistensializm, simvolizm. Modern adabiyot. Ijodkor uslubi. Individual uslub xususiyati va ijodkor mahorati.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: amaliy (A)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

A1	Adabiyotshunoslik – fan.
A2	Dunyoqarash, xalqchillik, milliylik, umuminsoniylik.
A3	Badiiy obraz va uning xususiyatlari, turlari.
A4	Badiiy adabiyotda xarakter, badiiy tip.
A5	Badiiy adabiyotda tipiklashtirish.
A6	Badiiy asarda mazmun, shakl, mavzu va g'oya.

A7	Badiiy asar sujeti.
A8	Badiiy asar kompositsiyasi.
A9	Badiiy asar tili.
A10	She'r tuzulishi.
A11	She'riy asarda qofiya va she'riy san'atlar.
	IV. Semenar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: semenar (S) **Semenar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**
S1	Badiiy til va uning o'ziga xos xususiyatlari.
S2	Sujet tiplari va xususiyatlari.
S3	Epik turning forma va janrlari.
S4	Lirik janrlar.
S5	Dramatik tur janrlari.
S6	Ijodiy metod.
S7	Adabiy oqimlar.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. **"Adabiyotshunoslik nazariyasi"** fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Sharq klassik adabiyotida adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyoti.
2.	G'arb mumtoz adabiyotida adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyoti.
3.	Istiqlol va bugungi adabiy-estetik qarashlar.
4.	Adabiyotning umumiy xususiyatlari.
5.	Hayot va adabiyot.
6.	Adabiyotning tasvir obyekti, predmeti, vazifasi
7.	Badiiy psixologiz
8.	Ijodiy jarayon
9.	Maxsus leksik boyliklar
10.	Badiiy – tasvir vositalari
11.	Poetik sintaksis
12.	She'riy san'atlar
13.	Qofiya saboqlari va unsurlari
14.	Mumtoz qofiya tiplari va turlari
15.	Eposning kichik janrlari
16.	A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida syujet bo'laklari
17.	«O'tgan kunlar»da avtor nutqi va uning xususiyatlari
18.	A.Qahhorning «Bemor» hikoyasi kompozitsiyasi
19.	Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» romanida obrazlar tasnifi
20.	P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida hayotiy va badiiy haqiqat
21.	«Muvozanat» romanida uch do'st obrazlari

22.	Muhammad Yusuf ijodida xalqchillik
23.	Hozirgi she'riyat haqidagi bahslar tahlili.
24.	"Dunyoning ishlari" qissasida o'xshatish san'ati.

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va magistrda shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida magistr ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida magistr qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanidan magistr, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Fan mazmuni
2-QISM
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Kirish. Adabiyotshunoslik nazariyasi fan sifatida.** Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o'mi; Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbashunoslik, adabiy jarayon, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari bilan aloqasi. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" badiiy adabiyot haqidagi fan ekanligi. Fanning predmeti, maqsad vazifalari va uning shakllanish sharayonini bilish, olingan bilmlarning asosida badiiy adabiyotning poetik xususiyatlarini tahlil qilish haqidagi nazariy tushunchaga ega bo'lish. Ilk shakllangan adabiy qarashlar turli janrdagi asarlar tarkibida sinkiritik shaklda shakllanib kelganligini izohlash.
M2	**San'at – estetik hodisa.** San'atning tabiati va turlari. San'atda inson ruhiyati ntasalasi. Adabiyot – so'z san'ati. Adabiyotning asosiy quroli so'z ekanligi. San'atning boshqa turlari bilan badiiy adabiyotning munosabati. Badiiy adabiyotda so'zning maqomi va tasvir imkoniyatlari.
M3	**G'arb adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan.** Adabiyotshunoslik tarixiga umumiy bir nazar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoz poetika asoslari; g'arb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.
M4	**Sharq adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan.** Adabiyotshunoslik tarixiga umumiy bir nazar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoz poetika asoslari; g'arb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.
M5	**Adabiyotning spetsifikasi.** Adabiyotning o'ziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning o'zaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olarni tasviri; adabiyot va san'atda ruhiyat masalasi; inson his-tuyg'ulari va kechinmalarining badiiy tasviri.
M6	**Badiiy asarda shakl va mazmuni dialektikasi.** Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlar; adabiyotda shakl va mazmun uyg'unligi badiiylikning eng muhim mezoni sifatida; poetik shakining o'zgarib borishi; shakibozlik muanunosi; badiiy asarning shakli va mazmunigaoid poetik unsurlar masalasi; mavzular tavsifti; mazmun va g'oya munosabati; badiiy syujet tizim sifatida; syujetning badiiy asar takribidagi poetik funksiyasi; badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari.
M7	**Badiiy obraz poetikasi.** Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi taiqini; obrazlarning turii nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylik va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va so'z; obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz genezisi – maydonga kelish omillari xususida. Obraz va xronotop; sujet va obraz munosabati.
M8	**Badiiy asar sujeti va kompositsiya.** Badiiy asar sujet, uning tarkiy qismlari, qo'shimcha elementlari, uning badiiyatdagi o'rni. Sujet yaratish yo'llari. Sujet ta'rifi, xususiyatlari. Sujet – qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqyealar tizimi. Sayyor (ko'chma) syujetlar. Fabula – asar uchun asos bo'lgan hayotiy voqyea-hodisalar. Sujetning tarkibiy qismlari. Ekspozisiya, voqyealar tuguni, voqyealar rivoji, voqyealarning avj nuqtasi, voqyealar yechimi. Sujetning

	mukammlik kasb etishi asardagi voqealar rivojini ta'minlashga va mantiqiy izchillikda shakllanishiga asos bo'ladi. Badiiy asar kompositsiyasi, uning poetika tarkibidagi o'mi, kompositsion vositalar. Asar sarlovhasi, epigraf, boblar va qismlarning yozuvchi ideyasiga muvofiq joylashtirilishi. Badiiy asar kompositsiyasi uning yaxlitligini, badiiy mukammalligini ta'minlovchi badiiy unsure ekanligi. Uning har bir xususiyati asarni yaxlitligini ta'minlashga asos bo'lishi bilan bir qatorda, kompozitsiyaning unsurlarini voqealar rivojiga hamohang tarzda ifodalash ijodkor badiiy mahoratini namoyon etishi bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi.
M9	**Badiiy asar xronotopi.** "Xronotop"ning iug'aviy va istilohiy ma'nosi; badiiy asarda epik tafakkur ko'larni ; voqelik kechadigan makonning cheksizligi; adabiy makonga xos xususiyatlar; adabiy zamonning shartlanganligi; badiiy asarda makon va zamon uyg'unligi. Badiiy xronotop poetikasining o'ziga xos tamoyillari, uning badiiy matndagi funksiyasi ochib beriladi.
M10	**Adabiy tur va janrlar poetikasi.** Har bir turning shakllanishi va taraqqiyoti, uning xususiyatlari, badiiy funksiyalarining janriy ko'rinish tamoyillari haqida so'z yuritiladi. Epik tur taraqqiyoti, janrlaridagi sintezlashish sabablari, roman janri va uning ko'rinishlari, badiiy funksiyalari, keyingi yillardagi janr taraqqiyoti. Lirik turning janrlaridagi o'zgarishlar, poetik yangilanishlar, dramatik asarlardagi dramatizmning kuchayish sabablari tahlil qilinadi.
M11	**Poetik nutq va uslub.** Poetik nutq va badiiy asar tili masalasi. Poetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; dialogik va monologik nutq. Poetik nutqda emotsionallik; nasriy asar ritmi. Badiiy nutq mezoni. Uslub va ijodkor. Kinoyaviy uslubga xos belgilar. Badiiy uslub va badiiy til. Uslublar xilma-xilligi. Uslubdagi individuallik.
M12	**Badiiy uslub va ijodiy metod. Adabiy oqimlar.** Badiiy uslub va badiiyatdagi o'rni. Asrlar davomida shakllanib kelgan uslub tushunchasi. Ijodiy metodlar. Realizm, romantizm. Realizmning hayotiy haqiqat bilan uzviyligi. Rozmantizimning tasvirdagi o'rni, ularning talqindagi o'ziga xosliklari. Metod – hayot hodisalarini tanlash, ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo'li. Ijodiy uslublar: romantizm, realizm. Klassisizm yo'nalishi. Sentimentalizm, naturalizm, syurrealizm, ekzistensializm, simvolizm. Modern adabiyot. Ijodkor uslubi. Individual uslub xususiyati va ijodkor mahorati
M13	**Modernizm va postmodernism va glaballashuv.** Talqindagi poetik yangilanishlarning vujudga kelishi, uning sabablari, jahon adabiyotidagi yangilanishlarning istiqlol davri adabiyotshunosligida namoyon bo'lishi, uning sabablari asoslanadi. Poetik yangilanish zamirida modernizm, postmodernism adabioy oqimlarining ifoda shakllari va xususiyatlai asoslanadi.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: amaliy (A) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
A1	Sharq adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
A2	G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
A3	Badiiy adabiyot va folklor munosabati.

A4	Badiiy obraz darajasi.
A5	Roman janri xos xususiyatlar muhokamasi,
A6	She'riy san'atlarni farqlash va aniqlash amaliyoti
A7	Ijodiy metod ustidagi bahslar.
	IV. Semenar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: semenar (S) **Semenar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**
S1	Adabiyotning funksiyasi.
S2	Qissa janri va qissaxonlik.
S3	Lirik tur spetsifikasi.
S4	Dramatik tur, tragediya va tragikomediya.
S5	Hajviy tafakkur tabiati: satira va yumor.
S6	Adabiy-tarixiy jarayonda an'ana va yangilanish.
S7	Adabiyotning funksiyasi.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. **"Adabiyotshunoslik nazariyasi"** fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Sharq adabiyotshunosligming o'ziga xos qirralari,
2.	G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga old manbalami o'qish.
3.	Badiiylik mezonlari.
4.	Obrazli tafakkur tabiati.
5.	Obraz, xarakter, tip: umumiyiik va o'ziga xosliklar.
6.	Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya o'rtasidagi umumiyiik.
7.	Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi. Aruz vazni, barmoq vazni: nazariy adabiyotlar.
8.	Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi.
9.	Badiiy ijod psixologiyasi.
10.	Badiiy ijod va irrotsional tafakkur
11.	Adabiyotda an'ana va navotorlik
12.	Ijodiy metod va adabiy oqim masalasi
13.	Postmodernizm va intertekstuallik.

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va magistrda shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida magistr ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida magistr qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanidan magistr, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. Asosiy adabiyotlar:

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvchi, 2005.
2. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, O'zbekiston, 2002.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. - T.: Navoiy universiteti. 2018.
4. H.Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Арасту. "Поэтика", "Ахлоқи кабир", "Риторика" – Т.: Янги аср авлоди. 2011.
1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент, «Ўзбекистон», 1993.
2. Umurov H. Adabiyot qoidalari. – T.: O'qituvchi. 2011.
3. Болтабоев Ҳ., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Т.: Мумтоз сўз. 2016.
4. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2018.
5. Ulug'ov Abdulla. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2018.
6. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi.

2018.
7. Nazarov B. Rasulov A. va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. – T.: Tafakkur qanoti. 2012.
8. Фитрат. Танланган асарлар (Адабиётшунослик). – Т.: Маънавият. 2004.

Axborot manbalari (saytlar):

1. http://www.literatnre.Uz
2. http://w3vw.ziyonet.uz
3. http://www.zivouz.com
4. http://www.turonlib.uz
5. 2. www. genhis philol.ru.
9. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism

Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 2024-yil ___-_____ ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan/modul uchun mas'ullar:

Sh.A.Hasanov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

A.N.Nasirov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

M.Davronova – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki).

G.H.Umurova – SamDCHTI dotsenti, filologiya fanlari doktori, professor (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – **A.N.Nasirov**

Kafedra mudiri: **Sh.Hasanov**

Fakultet dekani: **F.Eltazarov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-proректor: **A. S. Soleyev**

Samarqand davlat universiteti filologiya fakultetining 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani o'quv dasturiga

TAQRIZ

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dasturda bosh muhim vazifasi talabalarga bu fanning yuzaga kelishi, shakllanishi hamda milliy istiqlol mafkurasi ta'sirida taraqqiy etganligi haqida tushuncha beriladi. Adabiyotshunoslik ilmidagi, bugungi adabiy jarayondagi yangiliklar bilan, yaratilayotgan yangi badiiy asarlar bilan muntazam tanishib borish to'laqonli adabiyotshunos bo'lib yetishishning muhim shartlaridandir. Shuning uchun magistrlar vaqtli nashrlardagi adabiyotshunoslikka oid chiqishlar, adabiy-tanqidiy maqolalar bilan tanishib borishi zarur. Ikkinchidan, ular har bir e'lon qilinayotgan yangi she'riy, nasriy yoxud dramatik asarlardan ham xabardor bo'lib borishlari talab qilinadi. Uchinchidan, magistrlar olgan nazariy bilimlari asosida o'qib o'rganayotgan asarini tahlil qilishga harakat qilishi lozim. Shu yo'l bilan ular olgan bilimlarini mustahkamlay oladilar. To'rtinchidan, adabiyotshunoslikdan chuqur bilim olish uchun rus va boshqa tillardagi adabiyotlardan ham foydalanish muhim. Beshinchidan, bugungi kunda internet tarmog'i orqali adabiyotshunoslikdagi eng so'nggi yangiliklar bilan muntazam tanishib borish davr talabiga aylanib qoldi. Bu imkoniyatdan samarali foydalanish yetuk adabiyotshunos bo'lib yetishishning garovidir.

Mazkur fan dasturi ma'ruza, amaliy, semenar, mustaqil ishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari mustaqil ish topshiriqlarini ishlanmalari "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani mavzularini bir nuqtaga jamlagan. Dasturda adabiyotlar ro'yxati asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatiga ajratilgan. Har bir mavzu yuzasidan darsliklar, qo'llanmalar yetarli.

Fanning g'oyaviy-badiiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzulishi jihatidan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani o'quv dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

M.Davronova

Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori, f.f.d.

Samarqand davlat universiteti filologiya fakultetining 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani o'quv dasturiga

TAQRIZ

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanidan tuzilgan ushbu o'quv dasturi ikki qismdan iborat bo'lib, fan 1-kursda hamda 4-kursda o'qitiladi. sifatida o'rganiladi. Dasturda berilgan mavzular badiiy asarni tahlil qilish uchun yollanma berish, badiiy matni turli metodlar asosida har tomonlama ilmiy-estetik talilil qilish, adabiy jarayondagi poetik o'zgarishlarni, filologning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini, ilik shakllanish jarayonlarini sinkritik tarzda rivojlanib kelish sabablari, badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qilishni tushuntirish, bugungi jarayondagi badiiyat qonuniyatlarini tahlil etish kabi masalalar qamrab olingan.

Dastur bugungi talablar asosida nazariy qonun-qoidalarga to'xtalgan. Mazkur dastur ma'ruza hamda amaliy, seminar, mustaqil ta'lim mavzularga ajratilgan. Bundan tashqari mustaqil ta'lim topshiriqlari haqida muxtasar ma'lumotlar berilgan. Dasturda adabiyotlar ro'yxati asosiy va qo'shimcha adabiyotlarga ajratilgan holda ko'rsatilgan. Hamda elektron manzillarni ham joylashtirgan. Shuningdek fanni o'qish natijalari (shakllaniladigan kompetensiyalari), ta'lim texnologiyalariva metodlari, krediti olish uchun talablar batafsil bayon etilgan.

Dasturda fanning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak mutaxassislar kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabalari uchun "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani o'quv dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

G.Umurova
SamDCHTI professori,
filologiya fanlari doktori.

XODIMLAR BO'LIMI

NING IMZOSINI TASDIQLAYMAN